

JAHON VA O'ZBEK ADABIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sattarova Dilrabo Ikrambayevna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Rabbimova Arjumandbegim Haydarovna

rabbimovaarjumand@gmail.com

Samarqand davlat chet tillar institute

Annotatsiya. Mazkur maqola jahon adabiyoti va o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga olib, har ikkala adabiyotning tarixini yanada chuqurroq o'rghanish, shuningdek har bir adabiyotning o'ziga xos jihatlarini namoyish etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Jalon adabiyoti, O'zbek adabiyoti, Zamonaviy jahon adabiyoti, Zamonaviy o'zbek adabiyoti, jahon va o'zbek adabiyoti o'rtaсидаги xilma-xilliklar.

Adabiyot - xalq mulki. U inson hayotida alohida ahamiyatga aga. Inson bor ekan, adabiyot ham bo'ladi. Adabiyotning o'lmasligini ta'minlovchi ikkita qudratli omil bor. Ularning har biri adabiyotning g'oyat buyuk tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyati bo'lsa, ikkinchisi, uning insonlarga zavq-shavq berish xususiyatiga egaligidir. Zero, inson har qanday davrda, har qanday sharoitda ham busiz yashayolmaydi: u –doimo tarbiyaga, doimo ma'rifatga va badiiy zavq olishga muhtoj. Ana shunga ko'ra, tarbiyaviy – estetik ahamiyatga ega bo'lgan yetuk asarlarga aslo zavol yo'q. Bunga qarama-qarshi holda quruq zamonasozlik ruhida yozilgan hamda hukmron mafkura va siyosatning istagi bilan maydonga kelgan, badiiyati bo'sh asarlarning umri qisqa bo'ladi. Bunday asarlar davr sinovlariga bardosh berolmay, tezda unitiladi. Afsuski, 20-asrda yaratilgan asarlar orasida ana shunday "mahsulot"lar oz emas. Avvalo, o'zbek adabiyotining tarixi haqida gaplashadigan bo'lsak, bu davr tarixiga Turkistonda jadidchilikning paydo bo'lishi, chorizmning ag'darilishi, muxtoriyatning tiklanishi va sho'rolar jamiyatini qurish uchun kurash yillari sifatida kiradi. Xalqimiz mustamlaka davridagi milliy zulm va ijtimoiy adolatsizliklardan qanchalik aziyat chekmasin, qanchalik qiynalmasin, hech qachon tushkunlikka tushmadi. 20-yillarda avj olgan „bosmachilik” harakati buning yorqin isbotidir. Matbuotda e'lon qilingan bir maqolada qayd etilishicha,, 130-yillik mustamlaka yillarida Turkiston o'lkasida istibdodga qarshi 4500 marta katta-kichik isyonlar, g'alayonlar, norozilik namoyishlari bo'lib o'tgan". Xalq orasidan yetishib chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy,

Hamza, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Siddiqiy-Ajziy, Abdulqodir Shakuriy, Hoji Muin Shukrulla singari o'z davrining ilg'or ziyolilari va ijodkorlari mamlakat va xalq ahvoliga achinib, bunga chora izlab boshlaganlar. Yuqorida sanab o'tilgan jadidchilar va yana bir qancha jadidlar adabiyotimizning rivojlanish tarixiga katta hissa qo'shishgan. Jadidlarni zamonamiz qahramonlari desak adashmagan bo'lamic, chunki ular to hozirgacha bo'lgan adabiyotimiz taraqqiyotida yuksak jonbozlik ko'rsatganlar. Bundan tashqari jadidlar, "O'tkan uyg'onish" va "Xalqning ko'zini ochishda" aniqrog'i milliy uyg'onish davri g'oyalarini hayotga joriy etishda matbuot, maktab-maorif hamda adabiyot va san'at imkoniyatlaridan unumli foydalanishgan. Bundan tashqari, mehnatkash ommani jaholatga qarshi ilimli –bilimli bo'lishga, ma'rifatga chaqirish jadid yozuvchilari ijodining leytmotivini tashkil etdi desak adashmagan bo'lamic.

Endi jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jahon adabiyotining ilk rivojlanish bosqichi uyg'onish davri deb yuritiladi. Yevropa Uyg'onish harakatining vatani Italiya hisoblanadi. Uyg'onish davri Italiya adabiyoti vakili Dante Aligre Renessans jarchisi nomini olgan. Dante ijodni she'rlar yozishdan boshlagan. Arab faylasufi Ibn Rushdning ta'limotidan ta'sirlangan. 15-asr Italian lirikasiga lotin adabiyoti bilan bir qatorda arab she'r tuzilishi ham ta'sir etgan. Dante ijodida ham buni kuzatish mumkin. Uning eng yaxshi she'rlari "Yangi hayot" to'plamidan joy olgan. Dante keyinchalik ilmiy-falsafiy mavzular ustida ish olib boradi. Yana bir so'z bilan aytganda yana bir italyan gumanisti Jovanni Bokachcho novella janri rivojiga ulkan hissa qo'shdi, realistik hikoyaning ilk yo'nalishini boshlab berdi. Bir so'z bilan aytganda, jahon adabiyotining ilk rivojlanish bosqichlari Italiyada boshlangan. Keyinchalik Fransuz adabiyoti rivojiana boshlagan va bu davrda Fransua Rablening hissasi salmoqli o'rirlarni egalladi desak adashmagan bo'lamic. Uning "Gargantuya va Pantagruyel" asarida realism va shartlilik uyg'unlashib ketadi, tag ma'no juda kuchli ahamiyat kasb etadi. Ingliz gumanistik adabiyoti uch bosqichga ajratiladi. Dastlabki bosqich 15- asrning oxiri va 16- asrning 60-70-yillarini o'z ichiga oladi, ikkinchi bosqichni Shekspir ijodi davri deb ham atash mumkin. Bu davr 16-asrning oxirlaridan 17-asrning boshlarigacha, ya'ni Shekspir o'limigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Uchinchi bosqich 17 – asr boshlaridan shu asrning 40-yillarigacha davom etadi. Aynan shu yillar teatrlar yopila boshlaydi, uyg'onish g'oyalari tanazzulga yuz tutadi. Ingliz gumanistik adabiyotining namoyondalari Tomas Mor, F.Bekon, Kristofer Marlo, Shekspir ,Robert Grinlardir. Morning gumanistik qarashlari "Utopiya" asarida aks etgan. Bekonning "Tajribalar" ocherklar

to'plamida falsafiy, axloqiy, siyosiy va maishiy masalalar xususida fikr yuritiladi. O'rta asr dramasini gumanizm g'oyalariga mos ravishda tubdan o'zgartirgan Shekspirning salaflari Marlo Grin ijodidayoq yangi teatrning xarakterli xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Bunda buyuk shaxslar obraziga murojaat qilish, ularning tizginsiz ehtiroslari tasviriga keng o'rinn berilishi, millat o'tmishiga nazar tashlash, xalq qahramonligiga shoirona tus berish, dramaning "qonun –qidalar" dan xoli, xalq didiga mos universal shaklda ekanligi va boshqalar alohida ajralib turadi. Ushbu xususiyatlarning barchasi keyinchalik Shekspir ijodida o'z takomilini topadi. Drama janri o'zining yangi imkoniyatlarini namoyon qiladi. Ispaniya va Portugaliyada Angliyada bo'lgani kabi adabiyotning ravnaqi Uyg'onish davrining oxirgi bosqichiga to'g'ri keladi va Rennessans asri yakunlanayotganidan darak beradi. Uyg'onish davrining Ispaniyadagi ilk asari F.Roxasning "Selestina"si hisoblanadi. Unga va umuman, Yevropada uyg'onish davriga yakun yasagan asar Servantesning "Don Kixot" romani bo'ldi. Uyg'onish davrining janr sohasida katta kashfiyotlar qilgan, uning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatgan ikki vakili-Shekspir va Servantesdir. Shekspir jahon dramaturgiyasida alohida bosqich yasagan bo'lsa, Servantes ijodi realistik roman janrining shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Endi esa zamonaviy o'zbek adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 20-asrda yaratilgan o'zbek adabiyoti namunalarining nuqsonidan yutug'i, yomonidan yaxshisi ko'p. 20-asrda so'z san'ati sohasida erishilgan ana shunday yutuqlarni avaylab-asrash, bu davrda yaratilgan asarlarni tanqidiy o'rganib, keng targ'ib etish, ularni tom ma'noda xalq mulkiga aylantirish hozirgi kunning eng muhim vazifasidir. Biror yozuvchi ijodi yoki muayyan bir badiiy asarga baho berganda, o'sha adib yashagan yoki o'sha asar yozilgan davrning talabi bilan izohlanadigan ayrim nuqsonlarga qarab emas, balki badiiy saviyaga qarab hukm chiqarish, xulosasiga kelish kerak. Chunki adabiyot ham, yozuvchi ham o'zi yashagan jamiyatdan chetda turishi mumkin emas.

Afsuski, yuqorida ta'kidlaganimizdek sho'rolar davrida adabiyotning maqsad va vazifalarini tor tushunib, bir tomonlama talqin etildi. Badiiy asarni baholashda adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, badiiy mahoratga taalluqli tomonlari, adabiyot so'z san'ati ekanligi ko'pincha inobatga olinmadi. Natijada, so'z san'atining sifatiga putur yetdi. Badiiy yuksak asarlar ozayib "o'rtamiyona", sayoz asarlar ko'payib ketdi. Mustaqillik davrida adabiyotimiz so'z san'atining gullab-yashnashiga g'ov bo'luvchi turli to'sqinlardan, birinchi navbatda, kommunistik mafkura va sotsrealizm tazyiqidan qutildi. Adabiyotning erkin rivojlanishi yangi-yangi badiiy ufqlarni zabt etishi uchun yo'llar ochildi. Ana shuning uchun ham adabiyotimizning kelajagi yanada porloq, badiiyat xazinasi yangi-yangi ajoyib asarlar bilan boyishi

aniq, deb baralla aytish mumkin. Hozirgi zamon globallashuv davrida jahon adabiyotida kechayotgan jarayonlarga nazar tashlasak, dunyo xalqlari adabiyotida umuminsoniy muammolar, g'oyalar mushtarakligini kuzatishimiz mumkin. Xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi tafovutlar yo'qolib bormoqda, badiiyat mo'jizalari dunyo kitobxonining umumiy ma'naviy bisotiga aylanmoqda. Bugungi adabiyot uchun xos bo'lган yana bir xususiyat sifatida ommaviy adabiyotning keng quloch yozishi va ayni paytda elitar adabiyotning rivojlanishini ko'rsatib o'tish lozim. Ommaviy adabiyot rivoji sarguzasht-detektiv asarlarga, maishiy romanlarga bo'lган ehtiyojning ortishi, bunday kitoblarning keng tarqalishi, ular o'quvchisining ko'pligida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga faqat san'atni tushunuvchilar, yuksak didli kitobxonlar uchun mo'ljallangan adabiyot ham o'sishdan to'xtagani yo'q. Zamonaviy Amerika adabiyoti misolida ham uslub, shakl, mavzu bobidagi rang-baranglikni kuzatish mumkin. Amerikalik adabiyotshunos Ketrin Vanspenkeren, jumladan, shunady yozadi: Amerika adabiyotida Uilyam Kennedning "Temir yovvoyi o't", "Juda qarilar", asarlari Nyu-York shtati poytaxtining ko'cha va salonlarida yashovchilarning hayotini xazin va bog'liq ohangda tasvirlashi bilan rom etadi. Oldin qoloq, mustamlaka, rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kiritilgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Avvallari folklor darajasida bo'lган ba'zi adabiyotlar 20-asr oxiri 21-asr boshlariga kelib umumjahon miqyosiga ko'tarildi va jahon adabiy jarayoniga uning ajralmas qismi sifatida qo'shildi. Bir so'z bilan aytganda o'zbek adabiyotining ham jahon adabiyotning o'ziga xos jihatlari bor va ikkala adabiyotlar ham kundan –kunga rivojlanib boryapti desak adashmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S. Mirzayev. "XX asr o'zbek adabiyoti" - library.navoiy-uni.uz
2. AD Ikramboyevna, SD Ikramboyevna, The Ways of Forming Secondary Nomination in Uzbek Language and Its Impact on Linguistics, International Journals of Sciences and High Technologies, 2023
3. H Сулейманова, Тил Белгиларининг Нутққа Кўчирилиши
4. U.Hamdamov, A.Qosimov "Jahon adabiyoti" – Toshkent 2017. library.navoiy-uni.uz
5. D Axmedova, S Zarmaskhonov, Exploring Global Perspectives In Language Teaching And Learning, Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 205-207, 2024
6. UM Azamatovna, The History Of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples

7. НМ Сулейманова, О Структурной Схеме Номинативного Значения, Ученый XXI века, 2016
8. SD Ikrambayevna, Classification of Functions of Communicative Strategy and Tactics in Political Communication, Miasto Przyszłości 50, 548-553, 2024
9. UM Azamatovna, The History Of The Development Of Turkish Terminology
10. Н Сулейманова, О номинативной функции предложения, Иностранный язык: литература, образование 2 (4 (65)), 88-91, 2017.
11. Валиева, Н. (2023). Туркистанда Башқарув Тизими Адабиётлар Таҳлилида. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(19).
12. Бекимбетов, А. М. Исторические Предания В Каракалпакском Фольклоре. In Proceedings Of The International Conference «Sustainable Development Of The South Aral Sea Region» (p. 100).
13. Бекимбетов, А. М. (2024). Қарақалпақ Фольклоры–Миллий, Руўхый Мийрасларымыз:(халық әпсаналары мысалында). Hamkor konferensiyalar, 1(4), 386-395.
14. Bekimbetov, A. (2021). Totemism In Karakalpak Legends. Norwegian Journal of Development of the International Science, (72-2), 41-45.
15. Бекимбетов, А. М. (2019). Жанровая классификация каракалпакских народных легенд. Вестник науки и образования, (9-2 (63)), 37-40.
16. Окбаева, Н. (2022). Матрицы и детерминанты из биномиальных, обобщенных биномиальных коэффициентов. *Science and Education*, 3(4), 33-41.
17. Бабажанов, Ю., Окбаева, Н., & Бабажанова, И. (2019). Метод Определения Коэффициента Эффективности Газопровода. In Актуальные проблемы математики и информатики: теория, методика, практика (pp. 58-59).
18. Окбоева, Н. (2018). Уравнение Лапласа И Гармонические Функции. In Фундаментальные научные исследования (pp. 63-66).
19. Chen, Z., Xie, M., Zu, Q., & Abdufattokhov, S. (2023). Electrical Automation Intelligent Control System Based on Internet of Things Technology. *Electrica*, 23(2).
20. Abdufattokhov, S., Mahamatov, N., Ibragimova, K., Gulyamova, D., & Yuldashev, D. (2022). Supervisory optimal control using machine learning for building thermal comfort. *Operations Research and Decisions*, 32(4).
21. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришнинг Меъёрий-Хукуқий Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal*, 266.
22. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. Экономическое развитие и анализ, 1(8), 109-114.
23. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 178-186.